
TOSHLOQ TUMANIDA JURNALIST VA BLOGERLAR UCHUN PRESS-TUR O'TKAZILDI

Farg'ona viloyati hokimligi hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan media-rejaga asosan, bugun Toshloq tumanida jurnalistlar va blogerlar uchun navbatdagi press-tur tashkil etildi.

Dastlab, ommaviy axborot vositalari xodimlari tumandagi "Yoshlar" kichik sanoat zonasida yaqinda ish boshlagan "Ice milk bif" MCHJ tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan yaqindan tanishdilar. Ayni paytda korxonada tayyorlanayotgan sifatli va hamyonbop muzqaymoq mahsulotlar butun mamlakatimiz bo'ylab savdo tarmoqlari, supermarketlarga yetkazib berilmoqda.

Tadbirkor Fazliddin Dadajonovning qayd etishicha istiqbolli loyihani amalga oshirish uchun Xitoydan 6 milliard so'mga zamonaviy texnologiyalar xarid qilinib, olib kelib o'rnatilgan.

Bundan tashqari tadbirkor tomonidan qo'shimcha ishlab chiqarish syexlari tashkil etilib, jami 30 nafardan ziyod yoshlarning bandligini ta'minlandi.

Press-tur davomida jurnalist va blogerlar hududdagi eshik va rom hamda non ishlab chiqarish syexlarini ko'zdan kechirdilar. Tadbirkor bilan suhbat qurib, kelgusi rejalar, ishchi xodimlarga yaratib berilayotgan sharoitlar haqida ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

2023-08-17 16:49:01